



# IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**№5 (2)**



**2026**

ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, may.  
2-qism*

### Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

### Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

### Tahrir hay'ati:

**Salimov Oqil Umrzoqov** vch, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayev** vch, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayev** vch, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyev** vch, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyev** vch, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyev** vch, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoirazimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixojaga o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i  
**Utayev Uktam Choriyev** vch, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i  
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.  
**Abdukarimova Dinara Rustamxonovna**, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.  
**Ikramov Murod Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli**, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Prosecutor of Anijan Region  
**Ochilov Farkhod**, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Ikramov Murod Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori  
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Zebo Kuldasheva**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Rakhimovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor  
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor  
**Zebo Kuldasheva**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARIDA MOLIYAVIY HISOBOTLAR TAHLILINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'NALISHLARI .....	12
<b>Xudoyberdiyev Ulug'bek Axmad o'g'li</b>	
O'ZBEKISTON KOMPANIYALARIDA DIVIDEND SIYOSATI JOZIBADORLIGINI OSHIRISH .....	16
<b>Shermuxamedov Akmal Komiljonovich</b>	
РАЗВИТИЕ МЕХАНИЗМОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ МАЛОГО И СРЕДНЕГО БИЗНЕСА В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ФИНТЕХА И ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА .....	21
<b>Салимова Зиёда Рустамжон қизи</b>	



# O'ZBEKISTON KOMPANIYALARIDA DIVIDEND SIYOSATI JOZIBADORLIGINI OSHIRISH

**Shermuxamedov Akmal Komiljonovich**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
mustaqil izlanuvchi

**Annotatsiya.** Dividend siyosatining asosiy maqsadi foydaning iste'mol qilinadigan va kapitallashtiriladigan qismlari o'rtasidagi optimal nisbatni belgilashdan iborat. Mazkur siyosat aksiyadorlik jamiyatining uzoq muddatli strategik rivojlanishini ta'minlash, uning bozor qiymatini maksimal darajada oshirish hamda investorlar manfaatdorligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, dividend siyosati kompaniyaning bozor qiymatini oshirishga qaratilgan aniq chora-tadbirlar va mexanizmlarni shakllantiradi.

**Kalit so'zlar:** dividend, kompaniya, ulush, aksiya, muddat, investitsiya, adolatlilik.

**Abstract.** The main purpose of dividend policy is to determine the optimal ratio between the consumed and capitalized parts of profit. This policy ensures the long-term strategic development of a joint-stock company, maximizes its market value, and increases investment attractiveness. In addition, dividend policy includes specific measures and mechanisms aimed at enhancing the company's market value.

**Key words:** dividend, company, share, stock, term, investment, equity.

**Аннотация.** Цель дивидендной политики заключается в определении оптимального соотношения между потребляемой и капитализируемой частями прибыли, что обеспечивает стратегическое развитие акционерного общества в долгосрочной перспективе, способствует максимизации его рыночной стоимости и повышению инвестиционной привлекательности. Кроме того, дивидендная политика включает систему конкретных мер, направленных на увеличение рыночной стоимости компании.

**Ключевые слова:** дивиденд, компания, доля, акция, срок, инвестиция, справедливость.

## KIRISH

Hozirgi kunda jadal rivojlanib borayotgan O'zbekiston iqtisodiyotida ekologik barqarorlik, korrupsiyaga qarshi kurashish va jamiyat madaniyatini yuksaltirish muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu omillar iqtisodiy rivojlanish, investitsion muhit va korporativ boshqaruv tizimining samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois davlat boshqaruvida shaffoflikni ta'minlash, raqamli nazorat tizimlarini keng joriy etish va qonunchilik mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb vazifa sifatida qaralmoqda.

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, korrupsiyaga qarshi samarali kurashishda raqamli boshqaruv tizimlari, kuchli institutsional nazorat va qonun ustuvorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv nafaqat iqtisodiy jarayonlarning shaffofligini oshiradi, balki ekologik nazorat tizimlarini takomillashtirishga ham xizmat qiladi. Zamonaviy boshqaruv usullarida nazorat mexanizmlarining samaradorligi, ma'muriy javobgarlik choralari qo'llash va jamiyatda yuksak huquqiy hamda madaniy ongni shakllantirish muhim omillardan biri sifatida e'tirof etiladi. Ayniqsa, yosh avlodni vatanparvarlik, mas'uliyat va korporativ madaniyat ruhida tarbiyalash uzoq muddatli barqaror rivojlanishning asosiy shartlaridan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan iqtisodiy siyosatda kapital bozorini rivojlantirish, investitsion jozibadorlikni oshirish va investorlar uchun qulay muhit yaratish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Xususan, dividend siyosatini takomillashtirish orqali aksiyadorlik jamiyatlarining bozor qiymatini oshirish va investorlar manfaatlarini himoya qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Toshkent xalqaro investitsiya forumlaridagi (2022–2025-yillar) chiqishlarida quyidagi muhim jihatlar ta'kidlandi:

- xorijiy investorlar uchun aksiyalardan olinadigan dividendlar bo'yicha 3 yil muddatga soliq imtiyozlari berilishi;
- investorlar huquqlari va manfaatlarining davlat tomonidan kafolatlanishi;
- iqtisodiy barqarorlik va moliyaviy tizim shaffofligini ta'minlash;



- ochiq muloqot va qulay investitsion muhitni shakllantirish.

Mazkur islohotlar O'zbekistonda dividend siyosatini yanada takomillashtirish, aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining samaradorligini oshirish hamda mahalliy va xorijiy investorlar ishonchini mustahkamlashga xizmat qilmoqda<sup>1</sup>

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Shavkat Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston strategiyasi" asarida xalqparvar davlat barpo etish, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash, xavfsizlik va tashqi siyosat masalalari keng yoritilgan. Shuningdek, unda O'zbekistonning umumbashariy muammolar yechimiga qo'shadigan hissasi ham alohida ko'rsatib o'tilgan. Mazkur asar mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, kapital bozorini rivojlantirish va investorlar uchun qulay muhit yaratish jarayonlarini nazariy jihatdan asoslashda muhim manba hisoblanadi.

B.N. Urinov va U.F. Kenjayevarning "Korporativ boshqaruv" nomli darsligida korporativ boshqaruvning asosiy masalalari, jumladan, uni shakllantirish, qo'llash va baholash mexanizmlari yoritilgan. Darslikda amaldagi qonunchilik asosida mamlakatda korporativ boshqaruv tamoyillari ko'rib chiqilgan bo'lib, tijorat kompaniyalari hamda davlat ishtirokidagi kompaniyalarda korporativ boshqaruv sifatini baholash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, korporativ ijtimoiy javobgarlik tizimi ham ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilingan.

Z.A. Ashurovning "Zamonaviy korporativ boshqaruv: xorijiy tajriba" nomli o'quv qo'llanmasida kompaniyalarning bozordagi strategik va taktik maqsadlariga erishishda zamonaviy korporativ boshqaruvning o'rnini yoritilgan. Asarda kompaniya kapitalini shakllantirish, undan samarali foydalanish, bozor qiymatini oshirish va investorlar manfaatlarini himoya qilish kabi masalalar keng tahlil qilingan. Ushbu manba dividend siyosatini takomillashtirish, korporativ boshqaruv sifatini oshirish va aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini kuchaytirish masalalarini o'rganishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik jamiyatlarida dividend to'lovlari siyosatini yanada barqarorlashtirish va kompaniyalarning moliyaviy holati hamda investitsion imkoniyatlari bilan uzviy bog'liq holda takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Konsentrlangan mulkchilik shakliga ega kompaniyalarda dividend siyosati ko'p jihatdan asosiy aksiyadorlar qarorlariga bog'liq bo'lib, ularning manfaatlarini korporativ boshqaruv sifati, mulk huquqlarini himoya qilish darajasi va institutsional muhitning rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqdir.

Zamonaviy moliyaviy sharoitlar korporativ boshqaruv masalalariga alohida e'tibor qaratishni talab etmoqda. Korporativ boshqaruv sifati kompaniyaga investitsiya kiritish bo'yicha qaror qabul qilish jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadi va uning kapitallashtirish darajasini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Korporativ boshqaruvning muhim tarkibiy elementi sifatida dividend siyosati kompaniyaning bozor qiymatini oshirish maqsadida iste'mol qilinadigan va kapitallashtiriladigan foyda o'rtasidagi optimal nisbatni belgilashga xizmat qiladi.

Kompaniyalarning korporativ boshqaruv amaliyotini aksiyadorlarning daromad olish huquqi nuqtai nazaridan o'rganishda quyidagi jihatlar tahlil qilinadi:

- tasdiqlangan dividend siyosatining mavjudligi, ichki hujjatlarda dividendlarni to'lash tartibi hamda dividendlar uchun ajratiladigan sof foydaning minimal ulushini hisoblash tamoyillarining belgilanganligi;
- oddiy va imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash amaliyoti;
- kompaniyalarning dividendlar to'lash tarixi.

## TAHLIL VA NATIJALAR


Kompaniyaning dividend siyosatini rasmiylashtirish aksiyadorlar uchun dividend to'lovlari oldindan prognoz qilish imkoniyatini yaratadi hamda investorlarning kompaniyaga bo'lgan ishonchini oshiradi. Tadqiqot jarayonida korxonalarda dividend siyosatini tartibga soluvchi ichki hujjatlarning mavjudligi ijobiy holat sifatida baholandi. Bunday hujjatlar dividend to'lovlarining shaffofligini ta'minlash, aksiyadorlar manfaatlarini himoya qilish va korporativ boshqaruv sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dividend siyosatining asosiy maqsadi foydaning joriy iste'moli va uning kelgusidagi o'sishi o'rtasidagi optimal mutanosiblikni shakllantirishdan iborat. Mazkur yondashuv investitsion faoliyatni moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi hamda korxonaning uzoq muddatli strategik rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, samarali dividend siyosati korxonaning bozor qiymatini oshirish, investorlar jozibadorligini kuchaytirish va kapital bozorida mavqei mustahkamlash imkonini beradi.

<sup>1</sup> <https://www.gazeta.uz/oz/2024/05/02/tax/>



Dividend siyosati korxonaning umumiy moliyaviy siyosatining ajralmas qismi hisoblanadi. U iste'mol qilinadigan va kapitallashtiriladigan foyda o'rtasidagi nisbatni optimallashtirish orqali korxonaga qiymatini maksimal darajada oshirishga qaratiladi. Natijada kompaniyaning moliyaviy barqarorligi mustahkamlanadi, investitsion faolligi ortadi va aksiyadorlar manfaatlarini bilan korxonaning strategik rivojlanish maqsadlari o'rtasida muvozanat ta'minlanadi (1-rasm).



1-rasm. O'zbekistonda eng ko'p dividend to'lagan aksiyadorlik jamiyatlari reytingi<sup>2</sup>

Rasmdagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, dividend to'lagan aksiyadorlik jamiyatlari reytingida yuqori dividend ko'rsatkichlariga ega kompaniyalar yetakchi o'rinlarni egallamoqda. Bu holat investorlar uchun dividend siyosatining muhim investitsion mezonlardan biri ekanligini tasdiqlaydi.

2025-yildagi dividend to'lovlarining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- Yangi to'lov tizimi – 2025-yildan boshlab dividendlar Markaziy depozitariy orqali UzCSD mobil ilovasi yordamida to'g'ridan-to'g'ri aksiyadorlarning bank kartalariga o'tkazilmoqda. Bu tizim dividend to'lovlarining tezkorligi va shaffofligini oshirishga xizmat qilmoqda.

- Banklar faolligi – Ipak Yo'li banki va Hamkorbank dividend to'lovlari bo'yicha xususiy banklar orasida yuqori o'sish sur'atlarini namoyon etdi.

- Davlat korxonalarini faolligi – [Navoiy KMK](#) va Olmaliq KMK dividend to'lovlarining umumiy hajmi bo'yicha eng yirik to'lovchi korxonalar qatorida qolmoqda.

Korxonalarining dividend siyosati quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi:

- oshkorlik tamoyili – dividend siyosatini amalga oshirishda ishtirok etuvchi tomonlarning huquq va majburiyatlarini, dividend to'lash tartibi hamda miqdori bo'yicha qarorlar qabul qilish mexanizmlarini aniq belgilash va ochiq e'lon qilishni nazarda tutadi;

- o'z vaqtida to'lash tamoyili – dividendlarni belgilangan muddatlarda to'lashni ta'minlashga qaratilgan;

- iqtisodiy asoslanganlik tamoyili – dividendlar to'lash va ularning miqdori kompaniyaning real moliyaviy holati, rivojlanish strategiyasi hamda investitsion dasturlarini inobatga olgan holda belgilanishini anglatadi;

- adolatlilik tamoyili – aksiyadorlarning dividendlar to'lash, ularning miqdori va tartibi haqidagi ma'lumotlarni olishda teng huquqliligini ta'minlaydi;

- izchillik tamoyili – dividend siyosatida belgilangan tartib va tamoyillarga qat'iy rioya etishni ko'zda tutadi;

- rivojlanish tamoyili – korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish hamda kompaniyaning strategik maqsadlaridagi o'zgarishlarga mos ravishda dividend siyosatini muntazam ravishda yangilab borishni nazarda tutadi;

- barqarorlik tamoyili – kompaniyaning dividend to'lovlarini muntazam va barqaror darajada saqlashga intilishini ifodalaydi (1-jadval).

<sup>2</sup> <https://newslineuz.com/article/1231444/>

1-jadval. O'zbekistondagi Dividend Chempionlari (2025-2026)<sup>3</sup>

Kompaniya nomi	Bir dona aksiya uchun dividend (so'm)	Dividend daromadligi (Yield)	Umumiy to'lov hajmi / Izoh
UZEX (O'zRTXB)	780 so'm	10.7%	Kuzatuv kengashi tomonidan tavsiya etilgan
Way II	-	15.3%	AQSh dollari ekvivalentida hisoblangan
Uzbekinvest	15000	18%	Kuzatuv kengashi tomonidan tavsiya etilgan
Chilonzor Buyum Savdo	4000-5 000	14%	Kuzatuv kengashi tomonidan tavsiya etilgan
O'zmetkombinat	1500 - 2500	15%	Kuzatuv kengashi tomonidan tavsiya etilgan

Kompaniyaning dividend to'lash amaliyotini baholashda dividendlarning o'z vaqtida to'lanishi hamda kompaniyaning e'lon qilingan dividendlar bo'yicha majburiyatlarni qay darajada samarali bajarishi muhim mezonlardan biri hisoblanadi. Bu holat investorlarning kompaniyaga bo'lgan ishonchini mustahkamlash va aksiyalarning investitsion jozibadorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dividend siyosatining afzalliklari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- aksiyalar narxidagi keskin tebranishlarni yumshatish;
- qimmatli qog'ozlar bozorida barqaror kotirovkalarni shakllantirish;
- aksiyalarning likvidligini oshirish;
- aksiyadorlar uchun muntazam daromad manbaini yaratish;
- aksiyadorlik jamiyatining barqaror bozor qiymatini ta'minlash.

Aksiyadorlik jamiyati quyidagi hollarda dividendlarni e'lon qilish va to'lash, shuningdek dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilish huquqiga ega emas:

- ustav kapitali to'liq shakllantirilmagan bo'lsa;
- jamiyat sof aktivlarining qiymati ustav fondi va zaxira fondlari miqdoridan kam bo'lsa yoki dividendlar to'lash natijasida ushbu ko'rsatkichlardan pastlash ehtimoli yuzaga kelsa.

Korxonaga investitsiya kiritgan aksiyadorlar uchun dividend siyosati muhim iqtisodiy omillardan biri hisoblanadi. Bir tomondan, aksiyadorlar muntazam va barqaror dividend daromadlarini olishdan manfaatdor bo'lsalar, ikkinchi tomondan, korxonaning ishlab chiqarish va investitsion rivojlanishini qo'llab-quvvatlash orqali kelajakdagi daromadlarni oshirishga intiladilar.

Barcha korporativ tuzilmalarda foydani dividendlar va rivojlanish maqsadlari o'rtasida optimal taqsimlash zarurati quyidagi omillar bilan belgilanadi:

- ishlab chiqarishni rivojlantirish va investitsion loyihalarni moliyalashtirish ehtiyoji;
- aksiyadorlarning o'z daromadlarini maksimal darajada oshirishga bo'lgan intilishi.

Aksiyadorlik jamiyatlari uchun kapitallashtirishning o'sishi aksiyadorlarning mulkiy manfaatlarini ta'minlashning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Shu sababli dividend siyosati kompaniya foydasining iste'mol qilinadigan va kapitallashtiriladigan qismlari o'rtasidagi optimal nisbatni shakllantirish orqali aksiyalarning bozor qiymatini oshirishga xizmat qiladi.

Korporativ boshqaruvning muhim elementi sifatida dividend siyosati kompaniyaning bozor qiymatini maksimal darajada oshirish va moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga yo'naltiriladi. Dividendlar kompaniya sof foydasining aksiyadorlar o'rtasida ularga tegishli aksiyalar soni va turiga mutanosib ravishda taqsimlanadigan qismi hisoblanadi. Demak, dividend aksiyadorlarning kompaniya faoliyatidan oladigan moliyaviy manfaatining asosiy shakllaridan biridir.

Dividend siyosatining mohiyati kompaniya foydasining dividend sifatida taqsimlanadigan qismi bilan biznesni kengaytirish va rivojlantirishga yo'naltiriladigan qismi o'rtasidagi eng maqbul nisbatni aniqlashdan iboratdir.

Kompaniyaning dividend siyosatiga ta'sir etuvchi asosiy omillar quyidagilar hisoblanadi:

1. Huquqiy cheklovlar;
2. Shartnomaviy xarakterdagi cheklovlar;

3 Muallif ishlanmasi



3. Likvidlik darajasiga bog'liq omillar;
4. Ishlab chiqarishni kengaytirish bilan bog'liq ehtiyojlar;
5. Aksiyadorlar manfaatlarini bilan bog'liq omillar;
6. Moliyaviy va reputatsion omillar.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Ilmiy adabiyotlarda dividend siyosatini shakllantirishning uchta asosiy modeli keng qo'llaniladi va iqtisodiy amaliyotda muhim ahamiyat kasb etadi. Dividend siyosatining muayyan modelini tanlash kompaniyaning strategik maqsadlari, rivojlanish sur'atlari va investitsion ehtiyojlari bilan belgilanadi. Shu sababli har bir aksiyadorlik jamiyati o'zining moliyaviy holati hamda uzoq muddatli rivojlanish strategiyasidan kelib chiqib dividend siyosatini shakllantiradi.

Agar aksiyadorlik jamiyati jadal rivojlanayotgan bo'lsa, u qo'shimcha moliyaviy resurslarga ehtiyoj sezadi. Ko'pgina hollarda kompaniyalar moliyaviy resurslar bilan to'liq ta'minlangan bo'lsa-da, dividend to'lovlari shaklida mablag'larning ma'lum qismini aksiyadorlarga taqsimlash qo'shimcha moliyalashtirish manbalarini jalb etishni talab qilishi mumkin. Shu bois dividend siyosatini ishlab chiqishda kompaniyaning investitsion faolligi va moliyaviy barqarorligi o'rtasidagi muvozanatni saqlash muhim hisoblanadi.

Foydaning iste'mol qilinadigan va kapitalashtiriladigan qismlari o'rtasidagi nisbatni belgilashda quyidagi omillar inobatga olinadi:

- dividend to'lash tartibini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar;
- erkin pul mablag'larining mavjudligi;
- boshqa moliyalashtirish manbalarini jalb qilish imkoniyati va ularning qiymati;
- aksiyadorlarning iqtisodiy manfaatlarini.

O'zbekiston Respublikasida aksiyadorlik jamiyatlarining dividend siyosatini yanada takomillashtirish, uni kompaniyalarning moliyaviy holati va investitsion salohiyati bilan uyg'unlashtirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Konsentrlashgan mulkchilik shakliga ega kompaniyalarda dividend siyosati ko'p jihatdan yirik aksiyadorlarning manfaatlarini bilan bog'liq bo'lib, korporativ boshqaruv sifati, investorlar huquqlarini himoya qilish va institutsional muhitni rivojlantirish ushbu jarayonda muhim rol o'ynaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni<sup>4</sup>, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.04.2015-yildagi "Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4720-sonli Farmoni<sup>5</sup> hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.12.2015-yildagi "Aksiyadorlik jamiyatlariga xorijiy investorlarni jalb qilish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-2454-sonli qarori<sup>6</sup>, korporativ boshqaruv va dividend siyosatini takomillashtirishning muhim huquqiy asoslari hisoblanadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda korporativ boshqaruv tizimini xalqaro standartlar asosida rivojlantirish, shaffoflik, adolatlilik, hisobdorlik va mas'uliyat tamoyillarini keng joriy etish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlar xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish, kapital bozorini rivojlantirish va mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
2. V.R. Vesnin. Upravlenie sovremennoy korporatsiyey. Uchebnoe posobie. – Moskva: Prospekt, 2020. – 168 s.
3. A.A. Temirov. Dividendlar va dividend siyosati. O'quv qo'llanma. – Toshkent: TDIU, 2021. – 160 b.
4. A. Shermuxamedov. "O'zbekistonning aksiyadorlik jamiyatlarida dividend siyosatini ishlab chiqish tamoyillari" // Central Asian Journal of Economics and Management. – 2023.
5. S.A. Komiljonovich. "Digital Development of Dividend Policy in Joint-Stock Companies in the Republic of Uzbekistan" // American Journal of Business Management, Economics and Banking. – 2023. – Vol. 3(2). – P. 85–90.
6. A. Shermuxamedov. "Neobxodimost sifrovoy otsenki aktsiy kompanii v pandemicheskoy sostoyanii" // Arxiv nauchnix issledovaniy. – 2020. – T. 35.
7. Muxtorxon Tashxodjayev, Muyassar Umarxodjayeva, Akmal Shermuxamedov, Mekhribonu Kayumova. Korporativ madaniyat. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyoti-matbaa uyi, 2022. – 221 b.
8. Z.A. Ashurov. Sovremennoye korporativnoye upravlenie (zarubejniy opit). O'quv qo'llanma. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyoti-matbaa uyi, 2021. – 221 s.
9. A. Durmanov, T. Madumarov, G. Abdulkhayeva, A. Shermuxamedov, S. Baltashov. "Environmental Aspects and Microclimate in Greenhouses in the Republic of Uzbekistan" // E3S Web of Conferences. – 2023. – Vol. 389. – P. 04002.

4 <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

5 <https://lex.uz/docs/-2635197>

6 <https://lex.uz/uz/docs/-2846969>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2026. № 5 (2)

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---